

BOSHLANG‘ICH SINFLARNING TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA 4 K TALIM MODELINING O‘RNI VA AHAMIYATI

**Xayitboyeva Mehrinoz Baxtiyorjon qizi,
Muhammadjonova Odina Farxodjon qizi
ADPI, Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya 2-bosqich talabalari**

Annotatsiya: Hozirgi kunda O‘zbekistonda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari Yangi avlod darsliklari asosida ta’lim oladi. O‘zbekistonda yangi innovatsiyalar orqali ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida O‘zbekistonga 4K modeli olib kirildi. Ya’ni bu tamoyilda quruq ma’lumotlarni yodlatish yoki o‘qish, yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi. O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: Kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, PISA, PIRLS.

Boshlang‘ich ta’lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham nozik e’tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o‘zida «o‘quvchi shaxsi»ni yaratadi, maktabga va ta’lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to‘plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma’rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan “4K” modeli asosida tayyorlandi. “4K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko‘proq e’tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz. Yangi tajriba bilan esa o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon eta olishiga ko‘proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, to‘rt asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Kollaboratsiya: Darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi. Kommunikativlik: O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi. Kreativ fikrlash: O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni

o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Yangi innovatsion yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta’limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda "4K"ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti. "4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda

qo’llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o’quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko’nikmasi esa savol topshiriqlar va mashg’ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo’q deb aytish noto’g’ri. E’tiborlisi, 1-3 sinflar uchun taqdim etilgan

darsliklarning bir qismi, xususan, tasviriy san’at, o’zbek tili va musiqiy savodxonlik bo’yicha kitoblar kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan. Bu o’quvchilarni fanga yanada ko’proq qiziqtirish hamda bugungi

o’smirlar hayotida muhim bo’lgan gadjetlarni foydali vositaga aylantirish maqsadida ishlab chiqildi. Kengaytirilgan reallik ilovasi 1 marta yuklab olinadi va oflayn rejimida ishlaydi. Ushbu darsliklarda nafaqat fanlar, balki 21-asrda zarur bo’lgan hayotiy ko’nikmalar ham o’rgatiladi. Ayni damda kitoblar yosh psixologiyasini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan. Masalan, birinchi sinfda ta’lim jarayoniga ko’proq o’yin orqali yondashiladi, ma’lumotlar asosan ko’rsatish-vizual tarzda yetkaziladi. O’quv metodik komplekslar faol o’quv jarayoni uchun to’liq materiallar to’plami: darsliklar, mashq daftarlari, o’qituvchilar uchun uslubiy qo’llanmalarni o’z ichiga oladi. Shuningdek, Estudy elektron ta’lim platformasi ham ushbu tizimga uyg’un tarzda qiritilgan. U matematika, tabiatshunoslik, informatika kabi fanlar bo’yicha o’quv kurslarni hamda egallangan bilimlarni mustahkamlash uchun 300 dan ziyod ongni oshiradigan o’yinli vazifalarni o’z ichiga oladi. Platformadan dars davomida ham, bo’sh vaqtda ham foydalanish mumkin. O’quvchilar uning yordamida o’zlashtirgan materialni mustahkamlash bilan birga, mustaqil ravishda dasturdan ilgari ketishlari ham mumkin. Platforma TAS-IX tarmog’ida joylashtirilgan, bu esa undan bepul foydalanish imkonini beradi. O’quv-metodik komplekslar Android, IOS platformalari va “Matematika” va “Alifbo” mobil ilovalari uchun o’zbek va rus tillarida ongni o’stiradigan o’yinlar to’plamiga ega interfaol o’quv dasturini ham o’z ichiga oladi. E’tiborlisi, 1-3 sinflar uchun taqdim etilgan darsliklarning bir qismi, xususan, tasviriy san’at, o’zbek tili va musiqiy savodxonlik bo’yicha kitoblar kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan. Bu o’quvchilarni fanga yanada ko’proq qiziqtirish hamda bugungi o’smirlar hayotida muhim bo’lgan gadjetlarni foydali vositaga aylantirish maqsadida ishlab chiqildi. Kengaytirilgan reallik ilovasi 1-marta yuklab olinadi va oflayn rejimida ishlaydi. Ushbu darsliklarda nafaqat fanlar, balki 21-asrda zarur bo’lgan hayotiy ko’nikmalar ham o’rgatiladi. Ayni damda kitoblar yosh psixologiyasini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan. Masalan, birinchi sinfda ta’lim jarayoniga ko’proq o’yin orqali yondashiladi, ma’lumotlar asosan ko’rsatish-vizual tarzda yetkaziladi.

Yangi avlod darsliklari taqdimotida tanishtiriladigan o’quv-metodik komplekslar (O’MK) asosini Tanqidiy fikrlash, Jamoaviy ishlash, Ijodkorlik (Kreativlik) va Muloqot qilish ko’nikmalarini rivojlantirish (4K) tamoyili tashkil etadi.

Xulosa o’rnida aytish joizki, hozirda zamonaviy 4K modeli bo’yicha tashkil etilayotgan ta’lim modeli kelajakda yoshlarning bilimni yanada takomillashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.P. Anikeev Jamoada ruhiy muhit.-.: T “O’qituvchi”, 1993 y.
2. SH.A. Do’stmuhammedova O’qituvchilarning o’quv faoliyatlarini boshqarish psixologiyasi.-.: T , 2000 y.
3. Z.T. Nishanova Psixologik xizmat.-.: T, 2015 y
4. Boynazarovna, A. S. (2022). Innovatsion faoliyat va axborotlar bilan ishlashga ijtimoiy-madaniy adaptatsiya hosil qilish muammosining psixologik asoslari. Ta’lim fidoyilari, 21, 73-77.
5. Oqilova, K. (2021). Pedagoglardagi emotsional toliqish va uni bartaraf etish yo’llari. integration of science, Education and practice. Scientific-methodical journal, 307-310